

EKSPORTNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Olchinboyev Otabek Abdusamad o‘g‘li

Andijon davlat texnika instituti

tayanch doktoranti

E-mail: otabekolchinboyev79@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda eksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda moliyaviy, institutsional, sug‘urta, transport va maslahat ko‘magining rivojlanish bosqichlari tizimlashtirildi. 2017–2025-yillardagi normativ-huquqiy o‘zgarishlar hamda JST talablariga moslashuv jarayoni qiyosiy baholandi. Natijalar eksportni bevosita rag‘batlantirishdan korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan mexanizmlarga o‘tish samarali bo‘lganini ko‘rsatdi. Xalqaro sertifikatlash, akkreditatsiya, logistika, marketing va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati asoslandi. Taklif etilgan yondashuv eksport ko‘magining manzilliligi va natijadorligini oshirish, tarmoq hamda hudud xususiyatlarini hisobga olish va eksportyorlarning xalqaro bozorlardagi mavqeini mustahkamlash uchun amaliy asos yaratdi. Yordam vositalarini aniq KPIlar asosida baholash va raqamli eksport platformalarini rivojlantirish zarurligi belgilandi. Mazkur mexanizm eksport barqarorligini ham qo‘llab-quvvatladi.

Kalit so‘zlar: eksport, davlat qo‘llab-quvvatlashi, JST, raqobatbardoshlik, sertifikatlash, logistika, eksportyor, raqamli platforma.

Аннотация

В статье были научно проанализированы направления совершенствования механизма государственной поддержки экспорта в Узбекистане. В исследовании были систематизированы этапы развития финансовых, институциональных, страховых, транспортных и консультационных инструментов поддержки. Нормативно-правовые изменения 2017–2025 годов и процесс адаптации к требованиям ВТО были сопоставлены. Результаты показали эффективность перехода от прямого стимулирования экспорта к механизмам повышения конкурентоспособности предприятий. Была обоснована значимость поддержки международной сертификации, аккредитации, логистики, маркетинга и инновационной деятельности. Предложенный подход создал практическую основу для повышения адресности и результативности экспортной поддержки, учета отраслевых и региональных особенностей и укрепления позиций экспортеров на внешних рынках. Дополнительно была определена необходимость оценки инструментов поддержки по четким KPI и развития цифровых экспортных платформ.

Ключевые слова: экспорт, государственная поддержка, ВТО, конкурентоспособность, сертификация, логистика, экспортер, цифровая платформа.

Abstract

This article scientifically analyzed directions for improving the state export support mechanism in Uzbekistan. The study systematized the development of institutional, insurance, transport, and advisory support instruments. Regulatory changes during 2017–2025 and alignment with WTO requirements were comparatively assessed. The findings showed that shifting from direct export incentives toward mechanisms strengthening enterprise competitiveness produced sustainable outcomes. The importance of international certification, accreditation, logistics, marketing, and innovation support was substantiated. The proposed approach provided a basis for improving the targeting and effectiveness of export support, considering sectoral and regional characteristics, and strengthening exporters' positions in international markets. It also emphasized KPI-based evaluation and digital export platforms.

Keywords: export, state support, WTO, competitiveness, certification, logistics, exporter, digital platform.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish va xalqaro raqobatning kuchayib borishi mamlakatlarning tashqi savdo faoliyatini, xususan, eksport salohiyatidan samarali foydalanish masalasini strategik ahamiyatga ega yo'nalishlardan biriga aylantirmoqda. Eksport hajmining barqaror o'sishi mamlakatning valyuta tushumlarini ko'paytirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan eksport faoliyatini rivojlantirishda davlat tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy, institutsional, axborot-maslahat va tashkiliy ko'makning samarali mexanizmlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, eksport qiluvchi korxonalarini moliyalashtirish, eksportoldi tayyorgarligini qo'llab-quvvatlash, xalqaro standartlarni joriy etishga ko'maklashish, yangi tashqi bozorlarni o'zlashtirish va eksport risklarini kamaytirishga qaratilgan davlat dasturlarining samaradorligini oshirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va tashqi savdo faoliyatini yanada rivojlantirish sharoitida eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda eksportyor korxonalar uchun qulay moliyaviy shart-sharoitlar yaratish, eksport geografiyasini kengaytirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksportini rag'batlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlardagi ishtirokini kuchaytirish hamda davlat ko'magining manzilliligi va natijadorligini ta'minlash muhim yo'nalishlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning amaldagi mexanizmlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish, mavjud muammolarni aniqlash hamda eksport qiluvchi subyektlarning ehtiyojlaridan kelib chiqib ushbu mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakat eksport faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining o'rni va ahamiyatini R.H.Hojiyev tadqiqot ishida o'rgangan bo'lib, u eksport qiluvchi korxonalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, eksport faoliyatini rag'batlantirishning moliyaviy vositalaridan samarali foydalanish hamda mavjud qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratadi. Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda eksportni rivojlantirishda moliyaviy mexanizmlarning muhimligi asoslangan bo'lsa-da, eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning moliyaviy vositalarini hududlar va alohida sanoat tarmoqlari kesimida kompleks baholash masalalarini yanada chuqurroq tadqiq etish zarurati mavjud¹.

M.M.Muxtarov o'z tadqiqotida sanoat korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovi mamlakat makroiqtisodiy barqarorligi va eksport salohiyatini oshishiga olib kelishini, buning uchun mahsulot diversifikatsiyasi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy etish va bozor talablariga moslashish muhim omillar sifatida baholagan².

A.A.Ilyosov tadqiqotida sanoat mahsulotlari eksportini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hamda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan foydalanish masalalari tadqiq etgan. Tadqiqotda xorijiy mamlakatlarda eksportni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash amaliyoti tahlil qilinib, undan O'zbekiston sanoat korxonalari eksport faoliyatini takomillashtirishda foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Mazkur tadqiqotning ahamiyati sanoat mahsulotlari eksportini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning o'rnini asoslab bergan. Biroq eksportni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalarining samaradorligini alohida baholash, takomillashtirish masalalari qo'shimcha tadqiqotlarni talab etadi³.

Q.A.Isayev tadqiqot ishida tashqi savdo siyosatini tartibga solishda notarif usullarning o'rni, mazmuni va zamonaviy sharoitdagi qo'llanilish xususiyatlari tadqiq etilgan. Muallif notarif tartibga solish vositalarining tashqi savdo oqimlariga ta'siri, milliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qilish hamda mamlakatning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlashdagi ahamiyatiga e'tibor qaratadi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tashqi savdoni tartibga solishning faqat tarif vositalari bilan cheklanib qolmasdan, texnik reglamentlar, standartlar, sertifikatlash va boshqa notarif choralarni samarali qo'llash zarurligini asoslab berganligida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, notarif mexanizmlarning eksport qiluvchi korxonalar faoliyatiga,

¹ Hojiyev Rustam Hojimurodovich, "O'zbekistonda eksportni moliyaviy qo'llabquvvatlash yo'nalishlarini takomillashtirish", Central Asian journal of academic research, Volume 2, Issue 6, June 2024, 222-227-betlar, <https://doi.org/10.5281/zenodo.12177488>.

² Muxtarov Maxmudjon Marifovich, "The effect of product diversification on the economic efficiency of industrial enterprises", German International Journal of Modern Science №68, 2023, 19-21-pages.

³ Ilyosov Asrorjon Axrorjon o'g'li, "Sanoat mahsulotlari eksportining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: xorij tajribasi va amaliyoti", International journal of theoretical and practical research, ISSN 2181-2357, 2023, 84-90-betlar, <https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8088528>.

xususan, ularning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari va eksport xarajatlariga ta'sirini baholash masalalari yanada chuqur tadqiq etilishi lozim¹.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mazmuni, tarkibiy elementlari va samaradorligini baholashga yo'naltirilgan tizimli, kompleks va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini eksport faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashga oid ilmiy qarashlar, iqtisodiy nazariyalar hamda xalqaro tajriba tashkil etdi. Shuningdek, O'zbekistonning eksport faoliyatiga oid statistik ma'lumotlar asosida dinamik va tarkibiy tahlil, ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash hamda iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Eksportni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash vositalarining amaliy samaradorligini aniqlashda induksiya va deduksiya, guruhlash, taqqoslash va umumlashtirish usullari qo'llanilib, mavjud muammolarni aniqlash hamda eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamiz JSTga qo'shilishni jadallashtirish uchun juda ko'plab eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga o'zgartirishlar kiritdi(1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining evolyutsiyasi².

Davr	Asosiy normativ-huquqiy asos	Davrning asosiy xususiyati
2017-2018-yillar	2017-yil 3-noyabrdagi PQ-3351 - "Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish"	Liberallashtirishning boshlanishi. PQ-3351 tashqi bozorlarda talab yuqori mahsulotlar eksportini ko'paytirish va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga qaratildi.
2018-2019-yillar	2018-yilgi tarmoq eksportini rag'batlantirish hujjatlari; 2019-yil 373-son qaror	Institutsional qo'llab-quvvatlashga o'tish. 2019-yilda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzurida Eksportni rag'batlantirish agentligi tashkil etildi.
2019-2020-yillar	2019-yil PQ-4337; 2020-yil PQ-4707	Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi kuchaydi. 2020-yil PQ-4707 bilan Eksportni rag'batlantirish agentligi va eksportyorlarga moliyaviy ko'mak mexanizmlari yanada aniq shakllantirildi.
2020-2021-yillar	2020-yil PF-6091; 2021-yil 167-son qaror	Eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning institutsional modeli shakllandi. PF-6091 Agentlikka qo'shimcha vazifalar yukladi.
2021-2022-yillar	2021-yil PF-6306; 2022-yil PF-97	Natijaga yo'naltirilgan rag'batlantirish kuchaydi. PF-6306 eksportchi korxonalarni qo'shimcha rag'batlantirish choralari joriy etdi.

¹ Qobiljon Abduqodirovich Isayev, "Tashqi savdo siyosatida notarif metodlarning qo'llanilishi va zamonaviy xususiyatlari", Scientific progress, Volume 2, Issue 4, 2021, ISSN: 2181-1601, www.scientificprogress.uz, 618-629-betlar.

² www.lex.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Davr	Asosiy normativ-huquqiy asos	Davrning asosiy xususiyati
2023-yil	2023-yil PQ-181	JSTga moslashish bosqichi boshlandi. PQ-181 bilan JST bitimlariga uyg'unlashtirish bo'yicha maxsus institutsional mexanizm belgilandi.
2024-yil	2024-yil PF-85 va boshqa hujjatlar	Qo'llab-quvvatlashdan "JSTga mos qo'llab-quvvatlash" modeliga o'tish.
2025-yildan	2024-yil PF-228, 2025-yil VMQ-18	JST talablariga institutsional va huquqiy moslashuv. VMQ-18 2025-yil 21-yanvardan kuchga kirgan.

2017-yilgacha O'zbekistonda eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi asosan ma'muriy tartibga solish, eksport operatsiyalarini nazorat qilish va ayrim tarmoq hamda korxonalarga imtiyozlar berishga asoslangan bo'lsa, 2017-yildan keyin ushbu tizim bosqichma-bosqich liberallashtirilib, institutsional, moliyaviy, sug'urta, transport va maslahat xizmatlarini qamrab oluvchi kompleks mexanizmga aylandi. 2023-yildan boshlab esa mazkur mexanizmning yangi bosqichi - uni JST bitimlari va xalqaro savdo qoidalariga muvofiqlashtirish jarayoni boshlandi. Natijada davlat tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlashning bevosita va ma'muriy vositalaridan ko'ra, eksportyorlarning raqobatbardoshligini oshirish, eksport risklarini kamaytirish, moliyaviy va institutsional xizmatlar ko'rsatish hamda xalqaro standartlarga moslashuvini rag'batlantirishga asoslangan mexanizmlarning ahamiyati ortib bormoqda.

Respublikimizda eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bevosita Jahon savdo tashkiloti xalqaro nizomlariga muvofiq shakllantirilishi muhim hisoblanadi. Ya'ni, endi "eksportni qo'llab-quvvatlashning kompensatsion modelidan - eksportyorning raqobatbardoshligini oshirish modeliga o'tish" - eng maqbul strategiya bo'ladi. Bundan buyog'iga davlat "qancha eksport qilsang, shuncha subsidiya beraman" degan yondashuvdan asta-sekin otishi va xalqaro standartni joriy qilinsa, yangi bozorga korxonalar kirsas, mahsulotlarni chuqur qayta ishlasa, innovatsiyalarni joriy qilsa, xalqaro marketing va sertifikatlash xarajatlarini amalga oshirsa - shu xarajatlarning bir qismini qo'llab-quvvatlashi davlatning navbatdagi yo'nalishi bo'lishi kerak.

Bu yondashuv ayniqsa muhim, chunki Eksportni rag'batlantirish agentligining 2025-yilgi rasmiy uslubiy qo'llanmasiga ko'ra muvofiqlikni baholash organlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish xarajatlarini qoplash mexanizmi ham mavjudligi ko'rsatilgan¹. Demak, taklif butunlay nazariy emas - amaldagi mexanizmlarni rivojlantirishga asoslanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishi uni bevosita eksport hajmini rag'batlantirishga asoslangan yondashuvdan eksport qiluvchi korxonalarning xalqaro

¹ O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan muvofiqlikni baholash organlarini xalqaro akkreditatsiya idorasidan akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish tartibiga oid uslubiy qo'llanma. - Toshkent. "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y. - 17 b.

raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan kompleks tizimga transformatsiya qilishdan iborat. Bunda eksportoldi va eksportdan keyingi moliyalashtirish, eksport kreditlarini sug'urtalash va kafolatlash, xalqaro sertifikatlashtirish va akkreditatsiya xarajatlarini qoplash, logistika va xalqaro marketingni qo'llab-quvvatlash, innovatsion faoliyat hamda raqamli eksport kanallarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, mazkur qo'llab-quvvatlash vositalarini JSTning xalqaro savdo qoidalariga muvofiqlashtirish, ularning natijadorligini aniq KPilar asosida baholash va tarmoq-hudud xususiyatlaridan kelib chiqib differensial qo'llash davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'larning samaradorligini oshirish hamda O'zbekiston eksportining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash imkonini beradi.

Alohida qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni taklif sifatida taqdim qilish mumkin:

1. Eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni diversifikatsiya qilish, ya'ni, eksportyorlarni eksport hajmi, qo'shilgan qiymat, yangi bozorlar va mahsulot diversifikatsiyasi bo'yicha reytinglash va yordamni natijaga qarab ajratish;

2. Xalqaro sertifikatlash xarajatlarini qoplash, ya'ni, ISO, HACCP, CE va boshqa bozorlarda talab qilinadigan standartlar bo'yicha xarajatlarning bir qismini kompensatsiya qilish;

3. Raqamli eksport platformasini rivojlantirish, bu yerda, "Yagona eksport oynasi" orqali bozor, bojxona, sertifikat, logistika va xaridorlar haqidagi ma'lumotlarni birlashtirish;

4. Eksportni hududlar va tarmoqlar kesimida differensial qo'llab-quvvatlash, ya'ni, Hudud va tarmoqning eksport salohiyatiga qarab alohida "eksport paketlari"ni joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabr PF-157-son "Raqamlashtirish sohasida eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-7158969>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabr PF-268-son "Tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6323768>

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18-yanvar 2025-yildagi 18-son "Eksportni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarining jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7327814>

4. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan muvofiqlikni baholash organlarini xalqaro akkreditatsiya idorasidan akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish tartibiga oid uslubiy qo'llanma. - Toshkent. "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y. - 17 b.;

5. Hojiyev Rustam Hojimurodovich, “O‘zbekistonda eksportni moliyaviy qo‘llabquvvatlash yo‘nalishlarini takomillashtirish”, Central Asian journal of academic research, Volume 2, Issue 6, June 2024, 222-227-betlar, <https://doi.org/10.5281/zenodo.12177488>;

6. Muxtarov Maxmudjon Marifovich, “The effect of product diversification on the economic efficiency of industrial enterprises”, German International Journal of Modern Science №68, 2023, 19-21-pages, <https://zenodo.org/records/10151164>. ;

7. Ilyosov Asrorjon Axrorjon o‘g‘li, “Sanoat mahsulotlari eksportining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: xorij tajribasi va amaliyoti”, International journal of theoretical and practical research, ISSN 2181-2357, 2023, 84-90-betlar, <https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8088528>;

8. Qobiljon Abduqodirovich Isayev, “Tashqi savdo siyosatida notarif metodlarning qo‘llanilishi va zamonaviy xususiyatlari”, Scientific progress, Volume 2, Issue 4, 2021, ISSN: 2181-1601, www.scientificprogress.uz, 618-629-betlar.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:
Ingliz tili muharriri:
Rus tili muharriri:
Musahhih:
Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Karimova Shirin Zoxid qizi
Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, avgust, 8-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 362/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**